

**“TARIX FANINI O`QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA
INTERFAOL METODLARNI QO`LLASH ORQALI ZAMONAVIY
INTEGRATSION DARSLARNI TASHKIL ETISH” mavzusidagi METODIK
QO`LLANMASI**

Toshkent Viloyati

Yangiyo`l Tumani Maktabgacha Va Maktab Ta`limi

Bo`limiga Qarashli 44-Umumiy O`Rta Ta`lim

Maktabining Tarix Fani O`qituvchisi

Kochkarova Nargiza Shakirovnaning



Annotatsiya: Ushbu metodik qo`llanmada ta`lim tizimida bugungi kundagi eng dolzarb muammo ta`lim sifatini oshirishga munosib yechim topish degan fikrga keldim. Chunki bugungi kun o`quvchisi o`ta talabchan, zukko va tezkor ekanligini inobatga olsak oddiy va an`anaviy dars mashg`ulotlari ular uchun zerikarli bo`lib qolmoqda. Metodik qo`llanmada o`qituvchi “boshqaruvchi” va o`quvchi “izlanuvchi”, “tadqiqotchi”, “o`rganuvchi” vazifalarni bajarishi, bu esa o`z navbatida o`quvchilarda o`zaro do`stlik, hamjihatlik, bir-biriga hurmat tuyg`ularidan tashqari mustaqil izlanishga, kreativ

fikrlashga, yangilik qilishga undash, maqsad sari intilish, o'z g'oyalarini, fikrlarini chiroyli bayon qilishga imkon beradi.

Ushbu metodik qo'llanmada tarix darslarini zamonaviy tashkil etishning yo'llari va yo'nalishlari hamda tarix darslarida qo'llaniladigan metodlar keng yoritib berilgan. Bugungi zamon talablariga javob beradigan, o'quvchilarni mantiqiy-kreativ fikrlashga undaydigan metodlardan namunalar ko'rsatilgan. Qo'llanma zamonaviy darslarni qanday tashkil etish? Bugungi kun o'quvchilarini qanday o'qitish?, ularga nimani va nimaga o'rgatish? kabi savollarga javob berilgan. Negiziga esa qanday tarzda samarali o'qitishga erishish mumkin? degan savolni qo'yadi. Qo'llanmada o'quvchilarni oliy o'quv yurtiga kirish testlarini yechish ko'nikmalarini yechishni shakllantiruvchi metodlar yoritib berilgan. Shuningdek tarix fanidan murakkab mavzularni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Qo'llanmada innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash metodlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Metod , Texnologiya, -Grafik organayzerlar Metodika Metod turlari. - Vizual, "Kichik guruhlarda ishlash" empirik va nazariy bilish , Tanqidiy kritiv fikr yuritish.

ASOSIY QISM

1. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Har qanday pedagogik texnologiyalar va metodlarning natijasi uni qo'llayotgan o'qituvchining ijodiy va kasbiy mahoratiga bog'liqdir. O'qituvchining kasbiy mahorati, o'quvchilarning o'z qiziqishlari, ta'lim muhiti va ularda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni inobatga olgan holda to'g'ri tanlangan va qo'llanilganda ko'zlangan pedagogik maqsadga erishish imkonini beradi. Ammo, hamma o'qituvchilar ham pedagogik texnologiya, metodika, metod, usul, uslub kabi tushunchalarni yaxshi farqlay olmaydi. Mazkur tushunchalarning mazmuniga e'tibor qarataylik.

Metod yunoncha soʻz boʻlib, tadqiqot yoki bilish yoʻli, umumiy maʼnoda maqsadga erishish yoʻli maʼnosini ifoda etadi. Metod oʻquv maqsadiga erishish yoʻli boʻlsa, **usul** metodning alohida tomoni yoki tarkibiy qismidir.

Ammo, oʻqituvchilarning baʼzi oʻqituvchilar, “metod” tushunchasining oʻrniga “uslub” tushunchasini qoʻllaydilar. Aslida “uslub” tushunchasi “metod” atamasining mohiyatini oʻzida toʻliq aks ettirmaydi. Chunki uslub koʻproq xususiy yaʼni, aniq maqsadga erishish yoʻlini ochib bermaydi.

Interfaol metodlar boshqa metodlar singari oʻquv mashgʻulotining tarkibiy qismi sifatida oʻqituvchi va oʻquvchi hamkorligini tashkil etishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, texnologik jarayonni toʻliq yoritib beradi. Yaʼni interfaol metodlarning asosiy xususiyati oʻqituvchilarning fikrlashini rivojlantirishga undashdan iboratdir. Ularni mutlaqlashtirib qoʻyish ham oʻrinli emas, chunki interfaol metodlar yangi bilimlarni berishga xizmat qilmaydi. “Metodika va texnologiya” tushunchalarining ham bogʻliqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib koʻrsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim oʻz markaziga oʻquvchini qanday oʻqitish?, oʻquvchilarni nimaima uchun oʻqitish?, ularni nimaga oʻqatish? kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, Qanday tarzda darslarni zamonaviy dars sifatida tashkil etib, samarali oʻqitishga erishish mumkin? degan savolni markazga qoʻyadi. Metodika oʻquv jarayonini qanday tarzda tashkil etish kerakligini nazarda tutsa, texnologiya qanday tartibda zamonaviy darsni eng qulay tarzda amalga oshirishga diqqat eʼtiborni qaratadi.

TAʼRIFLAR Pedagogik texnologiyalarni amalda qoʻllash jarayonida atamalarni toʻgʻri qoʻllash maqsadida quyidagi taʼriflarni keltirib oʻtamiz:

-Texnologiya (yunon tilidan. Τέχνη - sanʼat, mahorat, qobiliyat; λόγος - "soʻz", "fikir", "maʼno", "tushuncha") - kerakli natijaga erishish uchun usul va vositalar toʻplami; keng maʼnoda ilmiy bilimlarni amaliy muammolarni hal qilish uchun qoʻllash. Texnologiya ish usullarini, uning tartibini, harakatlar ketma-ketligini oʻz ichiga oladi.

-**Pedagogik texnologiya** – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo`naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijasini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japyonining mazmunidir.

-**O`qitish texnologiyasi** – o`quv mashg`ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo`llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, o`qituvchi va o`quvchining vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan ketma-ketlik.

Metod – umumiy ma`noda maqsadga erishish yo`li, ma`lum tarzda tartibga solingan faoliyat.

- **Interfaol metod** – o`quv jarayonining tarkibiy qismi bo`lib, bir vaqtning o`zida ham o`qituvchi, ham o`quvchini faollashtirishga yo`naltirilgan o`qitish usullari majmui.

-**Grafik organayzerlar** – o`quv jarayonida qo`yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o`qituvchi tayyor (to`ldirilgan) holda qo`llasa vosita vazifasini, o`quvchilarning mashg`ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi.

-**Metodika** – qat`iy ketma-ketlikka, tizimga aniq rioya qilish bo`lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o`tkazish metodlari va yo`llari majmuasi. “**Metodika**” tushunchasi turli fanlarni o`qitish bilan ham bog`liklikda qo`llanilib, ma`lum sohani o`qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig`indisini o`zida ifoda etadi.

TARIX FANINI HAMKORLIK TA`LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O`QITISH METODIKASI

Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi zamonaviy darslarni takomillashtirish va uni o`quvchi shaxsiga yo`naltirishga asoslangan. Bu texnologiya tarix fanini o`qitishda ta`lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o`qitish g`oyasi Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson (1987), Kaliforniya universiteti professori J.Aronson (1978), Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan (1988) tomonidan ishlab chiqilgan. Bunday tizimda o`qitishning asosiy g`oyasi berilgan vazifalarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlik va hamjihatlikda o`qishni o`rganishdi. Tarix fanini o`qitish jarayonida o`qituvchi hamkorlikda o`qitish texnologiyasi vositasida har bir o`quvchining bilim olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini tushungan holda muntazam va aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, olgan ma`lumotlarini puxta o`zlashtirishiga, guruhda hamkor va hamjihat bo`lib, o`zaro yordam uyushtirilishi orqali dars samaradorligiga erishish imkoniyatlari ortadi. O`qituvchi tarix fanini o`qitish jarayonida hamkorlikda o`qitish metodlaridan foydalanish maqsadida quyidagilarni:

- O`quv yilining boshidanoq qaysi mavzularni hamkorlikda o`qitish metodlaridan foydalanib o`rganish mumkinligini aniqlashi va ushbu mavzularni taqvim-rejada belgilashi;
- Mavzu bo`yicha o`quvchilarga tavsiya etiladigan vazifalarni va ularni bajarish yuzasidan ko`rsatmalarni tayyorlashi;
- Uyga berilgan topshiriqlar va yangi mavzular yuzasidan o`quvchilar bilimini nazorat qilish uchun tarqatma testlarni tuzishi kerak.

Hamkorlikda o`qitish texnologiyalaridan foydalanganda shuni nazarda tutish kerakki, O`quvchilar o`z o`rtoqlari bilan hamkorlikda berilgan vazifalarni to`g`ri bajarishlari bilan birga guruh a`zolarining faolligi, hamjihatligining vujudga kelishi, ular o`rtasidagi muloqotda kommunikativlik ya`ni muomila qilish, muloqot madaniyatini shakllantirishni ham hisobga olish talab etiladi.

Tarix fanini o`qitish jarayonida o`qituvchi hamkorlikda o`qitish texnologiyasini qo`llashi natijasida guruh a`zolarining bir vaqtni o`zida ikkita vazifani bajaradi:

1. Akademik vazifa - bilish va ijodiy izlanish orqali berilgan vazifalar bilan ko'zlangan maqsadga erishish.
2. Ijtimoiy-psixologik vazifa - dars jarayonida muloqot madaniyatiga ega bo'lish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish hamda o'zaro hurmat, osoyishtaligini saqlash.

O'qituvchi dars jarayonida har ikkala vazifaning sifatli bajarilishini nazorat qiladi. O'qituvchi tarix ta'limi jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanishi uchun ushbu texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni, o'quvchilarning mustaqil ishlari, guruhlar o'rtasidagi bahs va munozaralarni samarali tashkil etish yo'llarini egallagan, o'quvchilarda esa darslik, tarixiy manbalar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o'z fikrini qisqa va aniq bayon etish, fikrlarni asoslash va dalillash, mantiqiy fikr yuritish, bahs va munozaralarda faol qatnashish ko'nikmalari shakllangan va darsning oltin qoidasiga rioya qilgan bo'lishi lozim.

Tarix darslarida ushbu texnologiyaning qo'llanilishi natijasida o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish samaradorligini aniqlashda ularni o'zaro guruhda emas, balki har bir o'quvchining kundalik faoliyati oldingi qo'lga kiritilgan natijasi bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi guruhga foyda keltirishini tushunib, ma'suliyatni his qilib, yanada izlanishga, bilim, belgilangan mavzuni puxta o'zlashtirishga harakat qiladi.

An'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilarni faqat fundamental nazariy bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan. Bunday metod o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z ustida mustaqil ishlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon bermaydi.

Bugungi kunda texnika va texnologiyalar hamda innovatsion texnologiyalarni rivojlanishi natijasida o'quv jarayonida interfaol o'qitishdan samarali foydalanib, belgilangan darsning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kun sayin kuchayib bormoqda. Bugungi kun ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan darslar berilayotgan ma'lumotlarni o'quvchilar tomonidan o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlariga, o'z bilimlarini o'zlari

baholashlariga, o'zlashtirgan bilimdan to'g'ri xulosalar chiqarishni o'rgatishga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchi faolligining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, mustaqil va erkin fikrlab tengdoshlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlash va harakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan birga, ularda boshqaruvchilik, menejerlik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bu texnologiya dars jarayonida o'quvchi markaz ishtirokchisiga aylanadi.

TARIX DARSLARIDA FOYDALANISH UCHUN INTERFAOL METODLAR

Quyida ayrim metodlarning tavsifi berilgan. Siz ushbu metodlardan dars jarayonida foydalanishingiz mumkin.

PUZZLE METODI.

Rasmni tiklang. Ushbu rasmni printerda chop etib, belgilangan chiziqlar o'yicha



qaysida qirqish talab etiladi. So'ng aralashtirib, o'quvchilarga taqdim etiladi. Qaysi guruh rasmni tezroq yig'ib bo'lsa, o'sha jamoa g'olib hisoblanadi.

“ORTIQCHASINI TOP” METODI. Rasmda berilgan shaxsga aloqador bo'lmagan 2 ta ma'lumotni aniqlang

1. 17 marta mo'g'ularga qarshi jang olib borib, 14 tasida g'alaba qozongan.	2. Valiyon qal'asidagi g'alaba – Uning mo'g'ullar ustidan qilgan dastlabki yirik g'alabasi edi.	3. XIII asrning mashhur jangi - Sind jangiyakunida U Chingizxoqo'shinlari ustidag'alabaga erishdi
---	---	---

4. Uning qo'shini tarkibidan lashkarboshilari Sayfiddin Ag'roq, A'zam Maliklar tark etishiga sabab ot bo'lgan edi.		5. U past bo'yli, tana ranglari qora, ko'rnishi mo'g'ullarga o'xshash, turkiy tilda gapiradigan, ikkiyuzlamachi, qo'rqq inson edi.
6. U Bag'dod xalifasiga qarshi jang olib borgan.	7. U 18-20-metrli jarlikdan daryoga sakragan	8. Ukasi G'iyosiddin Pirshoh unga xiyonat qilgan

Javob: 1) _____, 2) _____

Esda tut metodi. 7-sinf O'zbekiston tarixi darsligidagi "IV-VII asrlarda mamlakatimiz xalqlarining turmush tarzi" mavzusini o'qitishda "Kichik guruhlarda ishlash" metodini o'yin tarzida tashkil etish tavsiya etiladi. Darslik matnidagi "Dehqon", Kadivar", "Kashovarz" atamaları qog'ozga ko'chirma qilib olinadi. Har bir o'quvchi o'ziga berilgan topshiriqni o'zlashtirib bo'lganidan so'ng o'tkaziladigan o'yin shaklidagi taqdimotda har bir guruh a'zosi o'z navbati kelganida kamida 1 ta yoki ikki va undan ortiq ma'lumot aytishi so'raladi. Belgilangan vaqt tugagach, guruh a'zolari ketma-ketlikda navbati bilan ma'lumotlarni mohiyatini anglagan holda yoddan aytib berishlari kerak. Bu guruh a'zolari o'rtasidagi ketma-ketlik jarayoni 3-4 marta o'tkazilib, berilgan mavzu shu tariqa ham guruh ichida, ham sinfdagi boshqa o'quvchilarga yetkaziladi. Har bir yangi ma'lumot +1 balldan baholanadi va ma'lumot takror aytilsa, guruhga jarima sifatida -1ball beriladi. Muhokama yakunida ballar hisoblanib, g'olib guruh rag'batlantiriladi. Darsni o'yin shaklida o'tkazilishi esa, o'quvchilarning qiziqishini ortishiga va faolligiga xizmat qiladi. So'ngra har bir guruh a'zolari tarqalib, boshqa-boshqa guruhlardan joy oladilar. O'qituvchi muhokama davomida aytilgan ma'lumotlar bo'yicha guruhlardan bir o'quvchini tanlab savol beradi. Agar o'quvchining o'zi mustaqil javob bera olsa guruhga 5 ball, jamoa a'zolaridan yordam olsa 3 ball beriladi. Shu tariqa dars davom

ettiriladi. Dars yakunida g'olib guruh va uning faol a'zolari rag'batlantiriladi. Bu metod orqali o'quvchilarning eshitgan ma'lumotlarini qay darajada eslab qolishlarini sinab ko'rish mumkin.

“So'zlar bahsi” metodi. Bu metod tarix darslarida qo'llanilganda bir bob, mavzu va mavzuning qismlari yuzasidan so'zlar bahsini tashkil etish tavsiya etiladi. Tarix darsida o'qituvchi o'quvchilarga mavzuga doir so'zlarning harflarini chalkash holda keltirib, undan so'z yasash va uning ma'nosini keltirish topshiriladi. Shu tariqa o'quvchining zukkoligi va so'z boyligini oshirishga erishiladi. Quyida 9-sinf “O'zbekiston tarixi” darsligidagi **“Mang'itlat boshqaruv davri”** mavzusini o'qitishda quyidagicha yo'l tutish tavsiya etiladi. Sinfda o'quvchilar uch guruhga bo'linib, mavzuning ham uchta qismi yuzasidan bellashish topshiriladi.

Shu tariqa birinchi guruhning topshirig'i: XVIII asr o'rtalarida Buxoro xonligida siyosiy va iqtisodiy inqiroz

ikkinchi guruhning topshirigi : -Mang'itlar sulolasi davlat boshqaruvidagi lavozimlarni topish,

uchinchi guruhning topshirig'i Amirlikda Shariat qonunlari amal qilinishini nazorat etadigan mansablarini topish buyuriladi.

Topshiriq namunalari:

1-topshiriq: lytvioa (viloyat), kkible (beklik), zoahra (hazora), olmak (amluk)

2-topshiriq: gshubiqe (qushbegi), devonbegi, parvonachi, ko'kaldosh, mehtar, shig'ovul

3-topshiriq: zoaiknqol (qozikalon), qasboto'(to'qsabo), shayxulislom, muhtasib, muftiy, sadr, qozi rais, va hokazo.

XULOSA

Bugungi kunda tarix fanini o'qitishdagi dolzarb muammolardan biri o'quvchilarni umumta'lim dasturlari asosida oliy ta'limga sifatli tayyorlashdan iboratdir. Bu

muammoning yechimi esa quyidagilardan iborat:

O`quvchilarda test bilan samarali ishlash ko`nikmasini shakllantirish;
mavzuning testlarga tushadigan qismlarini ajratib olish;
tarixiy shaxs, tarixiy yil sana, tarixiy joy nomlari bilan ishlash;
raqamli, jadvalli testlar bilan ishlash ko`nikmasini oshirish;
darslarda ilyustratsiyalar bilan ishlash ko`nikmalarini shakllantiruvchi metodlar bilan ishlash;
xarita bilan to`g`ri ishlashni tashkillashtirish;
mavzulashtirilgan testlar bilan muntazam ishlash;
atamalar bilan ishlash ko`nikmasini shakllantirish;
o`quvchilarni yodlashga emas tasavvurlarini kuchaytirishga, jarayonni tahlil qilishga undash.

Bundan tashqari bugungi axborotlar zamonida o`quvchilarni xotirasida berilgan ma`lumotlarni saqlab, ushbu o`rganilgan materiallarni kelajakda kundalik hayotda qo`llay olish kompetensiyasini shakllantirish muammosining yechimini topish, o`quvchilarda milliy qadriyatlarimizga bo`lgan hurmatni oshirish, tariximizda o`tgan ajdodlarimizdan faxrlanish hissini uyg`otishdan iboratdir. Afsuski bugungi kunda yoshlarni ommaviy madaniyat ko`proq qiziqitmog`da. Ommaviy madaniy orqali kirib kelayotgan salbiy illatlardan o`quvchilarni qaytarish, ularda o`z tariximizga, milliy qadriyatlarimizga qiziqish uyg`otish uchun esa darslarni zamonaviy tarzda tashkil etib, har bir mavzuni o`quvchi ongiga singdirishda interfaol metodlardan foydalanish talab etiladi. O`quvchi uchun qiziqarli bo`lgan zamonaviy metodlarni tanlab, darslarni zamonaviy dars sifatida tashkil etish har qachongidan muhim. Ushbu qo`llanmada yoritilgan metodlar yuqorida ko`rsatilgan muammolarni yechishga undovchi metodlardir. Jumladan, **“So`zlar bahsi metodi** o`quvchilarda test bilan samarali ishlash ko`nikmasini shakllantirish, raqamli, jadvalli testlar bilan ishlash ko`nikmasini oshirish ko`nikmalarini shakllantiradi. **“Har kim har kimni o`qitadi”** darslarda ilyustratsiyalar bilan ishlash ko`nikmalarini shakllantiradi. **Esda tut metodi, Agar men...** metodlari esa o`quvchilarni yodlashga emas tasavvurlarini kuchaytirishga, jarayonni tahlil qilishga undaydi. **PUZZLE METODI.** Bu metod orqali tarixiy

rasmni tiklashtopshirig`I beriladi Ushbu rasmni printerda chop etib, belgilangan chiziqb o'yicha qaysida qirqish talab etiladi. So'ng aralashtirib, o'quvchilarga taqdim etiladi. Qaysi guruh rasmni tezroq yig'ib bo'lsa, o'sha jamoa g'olib hisoblanadi.

“ORTIQCHASINI TOP” metodi orqali rasmda berilgan shaxsga aloqador bo'lmagan 2 ta ma'lumotni aniqlab topish kerakligi uqtiriladi.

Bu kabi metodlar darslarni zamonaviy tashkil etishga yordam beradi. Zamonaviy tarzda tashkil etilgan darslar esa o'quv jarayonida yaxshi natijalarga erishish, o'quv materiallaridan foydalanish, o'quvchilarning muntazam o'z ustida ishlash uchun imkoniyat yaratadi hamda samarali ta'lim jarayonini tashkillashtiradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda yosh avlod ongini yanada yuksaltirishda har bir pedagog o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biri bu – yosh avlodning dunyoqarashlarini hisobga olgan holda u bilan to'g'ri yondashish hamda kasbga bo'lgan muhabbat, yurtga bo'lgan mehr tushunchalarini uyg'unlashtirib, ular bilimini yanada takomillashtirishni tashkil etish va rag'batlantirish masalasidir. Hozirgi kunda o'quvchi yoshlarda kerakli bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash bilan bir qatorda ularni kasbga bo'lgan faoliyatini to'g'ri yo'naltirish maqsadida ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bu tushunchalarni uyg'unlashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Xususan tarix, O'zbekiston tarixi va boshqa darsliklar kesimida vatanimiz tarixini hamda uning naqadar yuksak poydevorga ega ekanligi yaqqol namoyon etib berilganligi hamda uning boshqa fanlar uyg'unligida olib borilishi yoshlar ongida salmoqli dunyoqarashlarning kelib chiqishiga turtki bo'ladi desak mubolag'a bo'lmas edi.

Tobora ulg'ayib borayotgan yosh avlodning ertangi kunini tariximiz zarvaraqlaridagi milliy qadriyatlarimiz asosida shakllantirish, ularning yurtga nisbatan faxrlanish tuyg'usini keltirib chiqarishi barchamizga sir emas. Shunday ekan buyuk ma'naviyatimiz asoschilaridan bo'lgan tariximiz, o'zbek elining dong'ini dunyoga tanitgan buyuk bobokalonlarimizning vatanimizga qo'shgan hissasini eslatish hamda biz kimning avlodi ekanligimizni yosh avlodga to'g'ri ma'noda singdirish vatanimiz kelajagini, uning ertangi kunini belgilab beruvchi yosh avlodimizni yanada o'ziga

boʻlgan ishonch, ertangi kunga boʻlgan ishtiyoq ruhida tarbiyalaydi, desak fikrimizning yorqin dalili boʻlar edi.

5. Foydalanilgan manbalar:

Ibragimova G. Interfaol oʻqitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. fal. dok. ... diss. – T. : 2017. – B. 7.

Xodjaev B. Metod, usul va texnologiya... mazkur tushunchalarni farqlay olasizmi?. Maʼrifat. – T.: 2018.

Safarova R va b. Oʻquvchilarda oʻzaro doʻstona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat koʻrsatish koʻnikmalarini shakllantirish strategiyasi. Fan va texnologiya . – T.: - 2014.

R. Ishmuhammedov, M. Yuldashev. Taʼlim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent 2016

Samarali maktabni boshqarish modullari Toshkent 2009

Elektron taʼlim resurslari.

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz